



TRANSFORMATION OF THE VALUE SYSTEM AS A RESULT OF MIGRATION: RECONFIGURATION OF IDENTITY, NORMATIVE STRUCTURE, AND SOCIAL CONSCIOUSNESS IN GLOBAL CONDITIONS

Bunyat Mirzaev

Researcher, Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: migration, value system, identity transformation, normative structure, social consciousness, cultural assimilation, hybrid culture, pluralism, normative dislocation.

Received: 14.09.25

Accepted: 15.09.25

Published: 16.09.25

Abstract: This article analyzes, from a scientific perspective, the complex impact of migration processes on the value systems of societies. Migration is not only a demographic or economic phenomenon but also a multi-layered process that leads to a radical restructuring of social consciousness, normative paradigms, and cultural identity.

MIGRATSIYA OQIBATIDA QADRIYATLAR TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI: IDENTITET, NORMATIV STRUKTURA VA IJTIMOYIY ONGNING GLOBAL SHAROITDA QAYTA SHAKLLANISHI

Buniyot Mirzayev

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: migratsiya, qadriyatlar tizimi, identitet transformatsiyasi, normativ struktura, ijtimoiy ong, madaniy assimilyatsiya, hibrid madaniyat, pluralizm, normativ dislokatsiya.

Annotatsiya: Maqola migratsiya jarayonlarining jamiyatlarda qadriyatlar tizimiga ko'rsatgan kompleks ta'sirini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Migratsiya — bu nafaqat demografik yoki iqtisodiy hodisa, balki ijtimoiy ong, normativ paradigma va madaniy identitetning tubdan qayta qurilishiga olib keluvchi ko'p qatlamli jarayondir.

ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ ЦЕННОСТЕЙ В РЕЗУЛЬТАТЕ МИГРАЦИИ: ПЕРЕФОРМИРОВАНИЕ ИДЕНТИЧНОСТИ, НОРМАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ И СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ГЛОБАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ

Буният Мирзаев*Исследователь Наманганского государственного университета
Наманган, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: миграция, система ценностей, трансформация идентичности, нормативная структура, социальное сознание, культурная ассимиляция, гибридная культура, плюрализм, нормативная дислокация.**Аннотация:** В статье с научной точки зрения анализируется комплексное влияние миграционных процессов на систему ценностей в обществах. Миграция — это не только демографическое или экономическое явление, но и многоуровневый процесс, приводящий к радикальной перестройке социального сознания, нормативных парадигм и культурной идентичности.

Kirish: Global migratsiya jarayonlari XXI asrning eng muhim sotsiokultural, iqtisodiy va siyosiy hodisalaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, insoniyat taraqqiyoti tarixida misli ko‘rilmagan miqyosda aholi harakatini keltirib chiqarmoqda. Jahon miqyosida iqtisodiy globallashuv, transport va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi, siyosiy nizolar, ekologik inqirozlar va ijtimoiy tengsizliklar migratsiya oqimlarini kuchaytiruvchi asosiy omillar qatorida qayd etiladi. Biroq, mazkur jarayonlarning eng murakkab va nozik oqibatlaridan biri — qadriyatlar tizimining transformatsiyasi hisoblanadi. Qadriyatlar tizimi, sotsiologik talqinda, jamiyat va shaxs faoliyatini yo‘naltiruvchi, ularning xatti-harakatlariga me‘yoriy asos bo‘luvchi g‘oyalar, e‘tiqodlar, axloqiy tamoyillar hamda madaniy kodlardan iborat murakkab struktura sifatida izohlanadi. Migratsiya oqibatida bu struktura mahalliy va global madaniyat o‘rtasidagi uzluksiz muloqot jarayonida qayta shakllanadi. Migratsiya faqat aholi soni yoki geografik joylashuvdagi o‘zgarish emas, balki sivilizatsion jarayonlar ichidagi epistemik va normativ o‘zgarishlarni tetiklovchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Migrantlarning yangi ijtimoiy-madaniy muhitga kirib borishi ular uchun madaniy assimilyatsiya, akkulturratsiya yoki madaniy sintez jarayonlarini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, qabul qiluvchi jamiyat ham yangi kelgan guruhlarining qadriyat tizimiga o‘z madaniy paradigmasi, ijtimoiy me‘yorlari va axloqiy idealari bilan ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, ikki tomonlama transformatsiya — migrantlar va qabul qiluvchi jamiyat qadriyatlar tizimining o‘zaro moslashuvi — yuz beradi. Qadriyatlar transformatsiyasi masalasiga yondashishda fenomenologik, sotsiokultural va tarixiy metodlar integratsiyasi zarur, chunki migratsiya natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlar faqatgina tashqi xatti-harakatlarda emas, balki ijtimoiy ongning chuqur qatlamlarida ham sodir bo‘ladi. Masalan, diniy qarashlar, oilaviy munosabatlar, gender rollari, vaqt va mehnatga munosabat kabi qadriyatlar migratsion tajriba ta’sirida sezilarli darajada qayta baholanadi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy integratsiya siyosatida murakkab muvozanatni taqozo etadi: bir tomondan, madaniy xilma-xillikni saqlash, ikkinchi tomondan, umumiy ijtimoiy birlikni

ta'minlash. Shu nuqtai nazardan, migratsiya oqibatidagi qadriyatlar tizimining transformatsiyasi masalasi zamonaviy sotsiologiya, falsafa, antropologiya va siyosatshunoslik sohalarida kesishgan murakkab ilmiy tadqiqot obyekti sifatida alohida e'tiborga molikdir. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab migratsiya oqimlari tobora ko'proq urbanizatsiyalashgan hududlarga yo'nalganligi sababli, qadriyatlar transformatsiyasi jarayoni ko'p hollarda ko'p millatli shaharlar doirasida kechmoqda. Bu esa ijtimoiy ongda "global fuqarolik", "transmilliy identitet" va "madaniy gibridlik" kabi yangi konseptlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda migratsion oqimlarning intensivligi va geografik ko'lami shunday darajaga yetdiki, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar endi lokal yoki milliy fenomen sifatida emas, balki global hodisa sifatida qaralishi zarur. Masalan, Yevropa Ittifoqida so'nggi o'n yilliklarda yuz bergan migratsion to'loqlar natijasida qadriyatlar tizimida bag'rikenglik, inson huquqlari, gender tengligi kabi prinsiplar yanada kuchaydi, biroq ayrim hollarda bu jarayonlar milliy o'zlik va madaniy merosni saqlash masalasida ijtimoiy keskinliklarni ham keltirib chiqardi. Shu kabi misollar boshqa mintaqalarda ham uchraydi — masalan, AQSh, Kanada, Avstraliya va Yaqin Sharq davlatlarida migratsiya oqibatida yuzaga kelgan qadriyatlar o'zgarishi siyosiy qarorlar va ijtimoiy munosabatlarga bevosita ta'sir qilmoqda. Qadriyatlar tizimining migratsiya oqibatida transformatsiyalanish jarayoni, avvalo, uning ichki strukturasi o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishni talab etadi. Qadriyatlar tizimi, sotsiologik kategoriya sifatida, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan va jamiyat a'zolari tomonidan ijtimoiy faoliyatda yo'naltiruvchi mezon sifatida qabul qilinadigan qadriyatlar majmuasidan iboratdir. Bu tizimning murakkabligi shundaki, u ijtimoiy ong, tarixiy xotira, madaniy meros va normativ-huquqiy strukturalar bilan chambarchas aloqada bo'ladi. Migratsiya oqibatida bu tizimda yuz beradigan o'zgarishlar ko'p qatlamli bo'lib, ular faqat "yangi qadriyatlarni qabul qilish" yoki "eski qadriyatlarni yo'qotish" jarayoni bilan cheklanmaydi; aksincha, ko'pincha qadriyatlarning rekontekstualizatsiyasi — ya'ni mavjud qadriyatlarni yangi ijtimoiy-madaniy muhitda qayta talqin qilish — sodir bo'ladi. Nazariy jihatdan, qadriyatlar tizimining migratsiya kontekstida o'zgarishini uch asosiy model orqali tasvirlash mumkin: assimilyatsiya, akkulturratsiya va madaniy sintez[1]. Assimilyatsiya modelida migrantlar qabul qiluvchi jamiyatning qadriyat tizimini to'liq qabul qiladi va o'zining avvalgi qadriyatlarini asta-sekin yo'qotadi. Akkulturratsiya modelida esa ikki tomonlama o'zgarish sodir bo'ladi — migrantlar mahalliy qadriyatlarni qisman o'zlashtiradi, shu bilan birga qabul qiluvchi jamiyat ham migrantlarning madaniy xususiyatlarini qisman qabul qiladi. Madaniy sintez modelida esa yangi, hibrid qadriyatlar tizimi paydo bo'ladi, unda ikkala tomonning eng muhim elementlari uyg'unlashadi. Fenomenologik yondashuv bu jarayonlarni shaxsiy tajriba darajasida tahlil qiladi. Migrantning yangi muhitda o'z qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishi, o'zini yangi normativ tizimda joylashtirishi — bu nafaqat ijtimoiy integratsiyaning, balki shaxsiy identitetning ham asosiy

komponentidir. Shu nuqtada, migratsiya tajribasini “ontologik siljish” sifatida ko‘rish mumkin, ya’ni shaxsning dunyoqarashi, ma’nolar tizimi va ijtimoiy rolini anglashida sifat jihatdan yangi bosqich yuzaga keladi. Migratsiya oqibatida yuz beradigan qadriyatlar transformatsiyasi ko‘pincha bir nechta omillarga bog‘liq: migrantning yoshi, ta’lim darajasi, madaniy masofa (ya’ni ona mamlakati va qabul qiluvchi mamlakat o‘rtasidagi madaniy farq), migratsiya sabablari (iqtisodiy, siyosiy, ekologik, oilaviy) va migratsiya davomiyligi. Masalan, yosh migrantlar ko‘pincha yangi qadriyatlarni tezroq qabul qiladi va mahalliy jamiyatga moslashishda yuqori moslashuvchanlikka ega bo‘ladi, biroq bu jarayon ularning avlodlar o‘rtasidagi madaniy tafovutlarni kuchaytirishi mumkin. Qabul qiluvchi jamiyat nuqtai nazaridan esa, migratsiya oqibatidagi qadriyatlar transformatsiyasi ikki xil ijtimoiy-siyosiy yondashuvni yuzaga keltiradi: multikulturalizm va assimilyatsionizm[2].

Adabiyotlar tahlili: Transmilliy madaniy almashinuv va uning ijtimoiy ongga ta’siri masalasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, bu borada falsafiy, sotsiologik va mahalliy yondashuvlar mavjud. Falsafiy-nazariy qarashlarda Samuel Huntington madaniyatlararo aloqalar kuchayishi bilan sivilizatsiyalar o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkinligini ta’kidlagan bo‘lsa[3], Anthony Giddens global kommunikatsiya vositalari madaniy integratsiyani kuchaytirib, insoniyatni yagona sivilizatsion makonga yaqinlashtirishini ilgari suradi[4]. Postkolonializm nazariyachisi Homi K. Bhabha esa madaniy almashinuv natijasida “uchinchi makon” paydo bo‘lib, u orqali yangi gibridd identitetlar shakllanishini asoslaydi[5]. Sotsiologik tadqiqotlarda esa transmilliylik konsepsiyasi asosiy o‘rinda turadi. Nina Glick Schiller, Linda Basch va Cristina Szanton Blanc migrantlarning “transmilliy ijtimoiy maydon”larda faoliyat yuritishini o‘rganib, ijtimoiy ongning bir vaqtning o‘zida bir nechta madaniy kontekstlar ta’sirida shakllanishini ta’kidlashadi[6]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, madaniy almashinuv ijtimoiy ongda ikki yo‘nalishda ta’sir qiladi: birinchidan, kosmopolitizm va madaniyatlararo tolerantlik kuchayadi; ikkinchidan, milliy identitetni saqlashga bo‘lgan intilish ortadi va ba’zi hollarda millatchilik kuchayadi [7]. Edward T. Hallning yuqori va past kontekstli madaniyatlar nazariyasi ham bu jarayonni tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki madaniy almashinuv odamlarning idrok qilish va muloqot uslublarini o‘zgartiradi[8]. O‘zbekiston olimlari ham bu mavzuni asosan globallashuv, migratsiya va milliy o‘zlik doirasida tadqiq etishmoqda. M. Qosimova mehnat migratsiyasi natijasida yuzaga keladigan madaniy adaptatsiya jarayonlarini tahlil qilib, chet eldan qaytgan migrantlar orqali yangi qadriyatlar va turmush tarzi elementlari kirib kelishini aniqlagan. A. Raximov esa globallashuv sharoitida milliy madaniyatni asrash strategiyalarini ishlab chiqib, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishdagi davlat siyosati rolini ko‘rsatgan[9]. Bu borada “O‘zbekiston Respublikasining madaniyat sohasidagi 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” (2021) muhim hujjat bo‘lib, unda

xalqaro madaniy hamkorlikni kengaytirish, xorijiy ta'lim va ilmiy dasturlarda faol ishtirok etish hamda milliy madaniyatni jahon miqyosida targ'ib qilish vazifalari belgilangan. Shu tariqa, mavjud ilmiy manbalar va strategik hujjatlar transmilliy madaniy almashinuvning ijtimoiy ongga ta'sirini tushunish va baholash uchun mustahkam nazariy hamda amaliy asos yaratadi.

Metotologik qism: Ushbu tadqiqotning metodologik asosini migratsiya oqibatida qadriyatlar tizimining transformatsiyasini chuqur va tizimli tahlil qilishga yo'naltirilgan kompleks yondashuv tashkil etadi, bunda bir nechta ilmiy metodlar uzviy bog'liq holda qo'llanildi: birinchi navbatda, tarixiy-komparativ tahlil metodi yordamida qadriyatlar tizimining turli davr va hududlardagi o'zgarish dinamikasi hamda migratsiya jarayonlari bilan o'zaro aloqasi solishtirildi, bu orqali qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy-tarixiy kontekstdagi o'ziga xosliklari aniqlab berildi; ikkinchidan, sotsiologik kuzatuv va chuqurlashtirilgan intervyu metodlari asosida migrantlarning subyektiv tajribasi, adaptatsiya strategiyalari va madaniy moslashuv mexanizmlari empirik material sifatida yig'ildi, bu esa migratsiya jarayonida qadriyatlar almashinuvi va ularning shaxsiy hamda jamoaviy identitetga ta'sirini jonli ijtimoiy faktlar orqali yoritishga imkon berdi; uchinchidan, diskurs-tahlil metodi orqali migratsiya va qadriyatlar masalasida ommaviy axborot vositalari, siyosiy hujjatlar hamda ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan narrativlar o'rganildi, bu esa qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy ong va kollektiv xotiradagi aksini aniqlash imkonini berdi; to'rtinchidan, sistemali yondashuv yordamida migratsiya oqibatida yuzaga keladigan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy omillar o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib chiqildi, natijada qadriyatlar tizimining transformatsiyasi murakkab, ko'p qatlamli va ko'p darajali jarayon sifatida talqin qilindi; nihoyat, falsafiy-analitik metod asosida qadriyatlarning o'zgarishida mavjud bo'lgan mantiqiy ziddiyatlar, paradigmatic siljishlar va ularning insoniyat taraqqiyoti hamda milliy identitet uchun oqibatlari chuqur tahlil qilindi. Shu tariqa, metodlar kombinatsiyasi tadqiqotga nazariy asoslangan, empirik dalillarga tayangan va mantiqan izchil ilmiy natijalarni olish imkonini berdi.

Natijalar: O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, migratsiya oqibatida qadriyatlar tizimining transformatsiyasi murakkab, ko'p qirrali va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u individual darajada ham, ijtimoiy tizim darajasida ham chuqur o'zgarishlarni keltirib chiqaradi; empirik ma'lumotlar va tahlillar shuni tasdiqladiki, migratsiya natijasida shaxsiy identitet va jamoaviy ong o'rtasida yangi moslashuv mexanizmlari yuzaga keladi, bunda dastlabki bosqichda "madaniy dissonans" holati kuchli sezilsa-da, vaqt o'tishi bilan qadriyatlar tizimi moslashuvchan va hibrid shaklga ega bo'la boshlaydi; bu jarayonda qabul qiluvchi jamiyat qadriyatlari va migrantning vatandagi qadriyatlari o'zaro sintezga kirishib, yangi ijtimoiy me'yorlar, madaniy ifoda shakllari va axloqiy yo'riqlarni vujudga keltiradi; shu bilan birga, natijalar migratsiya oqibatida ayrim an'anaviy qadriyatlarning zaiflashishi, ayrimlarining esa yangicha mazmun bilan

boyitilishi holatini ko'rsatdi, bu esa jamiyatdagi madaniy xilma-xillik darajasini oshiradi; tadqiqot shuningdek, qadriyatlar transformatsiyasi jarayoni faqat tashqi omillar — iqtisodiy sharoit, siyosiy barqarorlik, huquqiy tizim bilan emas, balki ichki omillar — shaxsning madaniy moslashuv qobiliyati, ijtimoiy aloqalari va psixologik tayyorgarligi bilan ham uzviy bog'liqligini aniqladi, natijada migratsiya jarayoni qadriyatlarning yangilanishi va ijtimoiy ongning global kontekstga moslashishida strategik ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asosda tasdiqlandi.

Muhokama: Migratsiya oqibatida qadriyatlar tizimining transformatsiyasi masalasi xalqaro ilmiy maydonda keng qamrovli bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Xususan, amerikalik sotsiolog R. Inglehart va kanadalik madaniyatshunos W. Kymlicka o'rtasidagi nazariy qarashlar bu borada o'ziga xos ikki qarama-qarshi yondashuvni ifodalaydi. Inglehart o'zining modernizatsiya va postmodernizatsiya nazariyasiga asoslanib, migratsiya oqibatida qadriyatlar tizimida yuzaga keladigan o'zgarishlarni asosan iqtisodiy rivojlanish, urbanizatsiya va texnologik taraqqiyot kabi makrostrukturaviy omillar bilan izohlaydi. Uning fikricha, migrantlar yangi ijtimoiy muhitga kirib kelganlarida, dastlab o'z an'anaviy qadriyatlarini saqlab qolishga intilsalar-da, iqtisodiy va institutsional tizimning bosimi ostida asta-sekin individualizm, sekulyarizm va o'z-o'zini ifoda etish kabi postmaterialistik qadriyatlarni qabul qila boshlaydilar[10]. Ushbu ikki yondashuvning qarama-qarshi jihatlari shundan iboratki, Inglehart qadriyatlar tizimidagi o'zgarishni global iqtisodiy modernizatsiya va postmaterialistik qadriyatlar dominatsiyasi bilan bog'lasa, Kymlicka bu jarayonni ko'proq madaniy xilma-xillik va identitetlarning ko'payishi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Amaliy jihatdan esa, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, haqiqiy ijtimoiy jarayon ko'pincha ushbu ikki pozitsiyaning o'rtasida joylashadi: ayrim qadriyatlar globalizatsiya ta'sirida umumlashadi, biroq boshqa qadriyatlar milliy-madaniy kontekstdan kelib chiqib o'ziga xosligicha qoladi yoki yangi shaklga ega bo'ladi. Shu bois, migratsiya oqibatidagi qadriyatlar transformatsiyasini faqat bir tomonlama — to'liq assimilyatsiya yoki to'liq pluralizm sifatida talqin qilish ilmiy nuqtayi nazardan yetarli bo'lmaydi; aksincha, bu jarayonni dinamik, ko'p vektorli va doimiy muzokaralar asosida kechadigan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa: Transmilliy madaniy almashinuv jarayonlarining ijtimoiy ongga ta'siri zamonaviy globallashuv sharoitida murakkab, ko'p qatlamli va dinamik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, madaniyatlararo o'zaro ta'sir nafaqat kommunikativ imkoniyatlarni kengaytiradi, balki qadriyatlar tizimining transformatsiyasiga, identitetning qayta shakllanishiga va ijtimoiy ongning mazmuniy jihatdan boyishiga olib keladi. Bu jarayonda iqtisodiy modernizatsiya, texnologik taraqqiyot va global axborot makonining kengayishi muhim omil sifatida namoyon bo'lsa-da, milliy-madaniy kontekst va tarixiy merosning roli ham inkor etib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qurbon o'g'li A. S. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va unda transchegaraviy turizmning o'rni //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – T. 3. – №. 30. – C. 101-108.
2. Ma'murjonovna G. S., Shohbozbek E. Maktabgacha ta'lim va boshlangich talim o'rtasida manaviy tarbiyaning uzviyligi //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 190-197.
3. Kadirova Z., Gaziyeva S. Xorijiy mamlakatlarda oilaviy migratsiya masalalari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 8.
4. Usmonov M. R., Muxamedov O. L., Barotova G. Markaziy Osiyo davlatlari transchegaraviy hududlaridan turizmda foydalanish istiqbollari.